

**“Orient Finans” XATBda individual  
bank seyflarini ijarasiga qo‘shilish shartnomasi**  
(Individual bank seyflaridan foydalanish qoidalari)

“Orient Finans” XATB (bundan keyin matnda “Bank” deb yuritiladi) va individual bank seyfi ijarasi bo‘yicha ushbu shartnomani qabul qilish istagini bildiruvchi jismoniy shaxs/yuridik shaxs/yakka tartibdagi tadbirkor (bundan keyin matnda “Mijoz” deb yuritiladi), shartnomaga Qo‘shilish arizasini taqdim qilish orqali (Ariza) quyidagilar bo‘yicha kelishib oldilar.

**1. SHARTNOMANING PREDMETI VA SHARTNOMANI TUZISH TARTIBI**

- 1.1. Ushbu Shartnoma Bankdagi individual bank seyfini (IBS) ijaraga olishning standart (namunaviy) shartlarini belgilaydi va Bank bilan Mijoz o‘rtasidagi Mijozga vaqtinchalik haq evaziga IBSdan foydalanish huquqini berish bo‘yicha munosabatlarni tartibga soladi. Shuningdek, Shartnoma IBSdan foydalanish qoidalarini belgilaydi
- 1.2. Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360-moddasida belgilangan tartibda, Mijozning Shartnomaga qo‘shilishi shaklida tuziladi.
- 1.3. Shartnoma quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda tuzilgan hisoblanadi va kuchga kiradi:
  - Mijoz tomonidan Bank tomonidan belgilangan shakldagi to‘ldirilgan va imzolangan Arizani Bankka taqdim etilishi;
  - Shartnomada belgilangan tartibda IBSni ijaraga olishning butun muddatiga ijara to‘lovi to‘lanishi;
  - Bank tomonidan Mijozga Mijoz kaliti va Bank tomonidan qabul qilinganligini ko‘rsatuvchi belgi qo‘yilgan Ariza koreshogini topshirilishi.
- 1.4. Mijoz tomonidan Arizaning to‘ldirilishi va imzolanishi, Shartnoma shartlarini hech qanday istisnosiz to‘liq va so‘zsiz qabul qilishini tasdiqlaydi. Ariza imzolanishida Mijoz tomonidan kiritilgan Shartnoma shartlarini o‘zgartiruvchi har qanday istisnolar yuridik kuchga ega emas.
- 1.5. Mijozlarga ma‘lumot berish maqsadida Shartnoma matni va Tariflar (amaldagi tahrirda) Bank filiallarining (ofislarining) axborot stendlarida va Bankning korporativ sayti [www.ofb.uz](http://www.ofb.uz)da joylashtiriladi, shuningdek ular Bankning mas‘ul xodimi ish stolida mavjud bo‘ladi
- 1.6. IBSni ijaraga olish bo‘yicha tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishdan oldin Mijozga Shartnoma matni va Bank Tariflari bilan tanishish huquqi beriladi. Mijoz Shartnoma matnining bitta chop etilgan nusxasini olish huquqiga ega.

**2. ATAMALAR VA TA'RIFLAR**

- 2.1. Shartnomada quyidagi atamalar va ta'riflar qo‘llaniladi:

**Individual bank seyfi (“IBS”)** – yong‘inga qarshi shkafning individual raqamlangan alohida qulflanadigan bo‘limcha – yacheykasi bo‘lib, uning ichida, qoida tariqasida, vaqtinchalik haq evaziga foydalanishga (ijaraga) topshiriladigan mijozning qimmatbaho narsalarini saqlash uchun konteyner joylashgan.

**Shartnoma** – quyidagi hujjatlarning yig‘indisi: ushbu shartnoma, Shartnomaga qo‘shilish to‘g‘risidagi Ariza, IBSni ijaraga olish muddatini uzaytirish bo‘yicha arizalar (bu arizalar Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi).

**Shartnomaga qo‘shilish arizasi (Ariza)** – Bank shakliga muvofiq tuzilgan ariza bo‘lib, uni imzolash orqali Mijoz Shartnomaga to‘liq qabul qiladi (qo‘shiladi) va Shartnomada belgilangan tartib va shartlar asosida IBSni ijaraga oladi. IBS har bir ijarasi uchun alohida Ariza rasmiylashtiriladi.

**IBS ijara muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ariza** – Bank shakliga muvofiq tuzilgan ariza bo‘lib, uni imzolash orqali Mijoz IBS ijara muddatini Shartnomada belgilangan shartlar asosida uzaytirish istagini bildiradi.

**Tariflar** – IBS ijarasi bo‘yicha Bankning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan tariflar.

**Konteyner** – IBS ichida bevosita joylashgan va Mijozning qimmatbaho narsalarini ixcham saqlash uchun mo‘ljallangan qulflanmaydigan penal.

**Master-kalit** – Bank xodimi tomonidan IBS qulfini ochishda Mijoz kaliti bilan bir vaqtda ishlatiladigan bank kaliti.

**Mijoz kalitlari** – IBS qulfidan ikki dona bir xil kalitdan iborat bo‘lgan to‘plam, ijara shartida IBS bilan birga topshiriladi (to‘plam ikki kalitdan iborat).

**Saqlash predmeti** – Mijoz tomonidan ijaraga olingan IBSda saqlanadigan naqd pul, qimmatli qog‘ozlar, qimmatbaho metallar va toshlar, zargarlik buyumlari va mahsulotlari, ishbilarmonlik hujjatlari, maxfiy hujjatlar, antikvar buyumlar, qadimiy buyumlar, san‘at asarlari, elektron axborot tashuvchilar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan boshqa qimmatli narsalar va buyumlar.

**Depozitariy** – signalizatsiya, yong‘in o‘chirish vositalari hamda ichki va tashqi videokuzatuv vositalari bilan ta‘minlangan metall va panjara eshiklariga ega individual bank seyflari joylashgan qo‘riqlanadigan maxsus jihozlangan Bank (Bank filiali) binosining alohida saqlash xonasi.

**Mijozlar uchun xona** – Depozitariy yaqinida yoki ichida joylashgan, Mijozlarning Saqlash predmeti bilan ishlashi uchun mo‘ljallangan alohida xona/kabina/ajratilgan joy.

**Operatsion kun** – Bank tomonidan belgilangan Mijoz Bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin bo‘lgan vaqt: dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma kunlari soat 09:30 dan 17:30 gacha (tushlik tanaffusini inobatga olgan holda), bayram va rasmiy dam olish kunlari bundan mustasno.

**Hisob kartochkasi** – Mijoz tomonidan Bank Depozitariysiga tashriflarining hisob kartochkasi.

### **3. IBSNI IJARAGA OLIISH SHARTLARI, MUDDATI VA IJARA HAQI. IJARA HAQINI HISOB-KITOB QILISH TARTIBI**

- 3.1.** Mijoz o‘z xohishiga ko‘ra Bank tomonidan taklif etilgan bo‘sh IBS (individuallik bank saqlagichi) laridan istalgan o‘lchamdagi IBS ni tanlashi mumkin. Mijoz bir vaqtning o‘zida 1 (bir) yoki undan ko‘p IBS ni ijaraga olishi mumkin. Bu holda, Shartnoma shartlari har bir ijaraga olingan IBS ga nisbatan qo‘llaniladi. Ijaraga olingan IBS hajmi va soni Arizada ko‘rsatiladi. Ariza taqdim etilgandan so‘ng Mijozga Hisob varaqasi rasmiylashtiriladi. IBS ijara muddati 1 oydan 36 oygacha belgilanishi mumkin.
- 3.2.** IBS ijarasi vaqtida saqlashga beriladigan qimmatbaho narsalar va hujjatlarning ro‘yxati tuzilmaydi. Mijozning IBSdagi narsalar bilan amalga oshirayotgan operatsiyalar vaqtida Bank xodimlari Mijozlar xonasida hozir bo‘lmaydilar. Bank Mijoz tomonidan IBS da saqlanayotgan narsalar uchun javobgar emas.
- 3.3.** IBS ni subarendaga berish qat‘iyan taqiqlanadi. Ijaraga olingan IBS kalitlarini saqlash xizmati taqdim etilmaydi.
- 3.4.** IBS da quyidagilarni saqlash taqiqlanadi:
  - yong‘in chiqaruvchi, zaharli, portlovchi, narkotik, zaharlovchi, radioaktiv, kimyoviy, bakteriologik moddalar; qurol, boshqa buyumlar va moddalar, amaldagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq saqlanishi taqiqlangan narsalar;
  - muomaladan chiqarilgan va/yoki saqlanishi uchun maxsus ruxsat talab qilinadigan narsalar; suyuqliklar; buziluvchi mahsulotlar; shuningdek, IBSga, qo‘shni IBS kameralari va ularning tarkibiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan



- boshqa narsalar va moddalar, Bank xodimlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan narsalar;
- anti-davlat yoki diniy mazmundagi taqiqlangan adabiyotlar (shu jumladan, varaqalar), mavjud davlat tuzumini konstitutsiyaga zid ravishda o'zgartirishga, hokimiyatni egallash yoki qonuniy saylangan yoki tayinlangan davlat vakillarini hokimiyatdan chetlashtirishga yoki O'zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini buzishga chaqiruvchi materiallar.
- 3.5.** Ijara muddati Arizada ko'rsatiladi, u IBS kalitlari topshirilgan qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlanadi va kalitlar topshirilgandan so'ng boshlanadi (keyingi o'rinlarda "Ijara muddati"). IBS Ijara muddati uzaytirilishi mumkin, bu uchun amaldagi Ijara muddati tugamasidan avval Ijara muddatini uzaytirish haqida Ariza taqdim qilinishi va Mijoz Bankning IBS xizmat ko'rsatish bo'yicha yangi ijara muddati uchun belgilangan tariflariga muvofiq ijara haqini to'lashi lozim.
- 3.6.** Agar ijara muddati oxirgi kuni ish kuniga to'g'ri kelmasa, ijara muddati yaqin ish kuni bilan yakunlanadi.
- 3.7.** IBS ijaraga berilishi Mijoz tomonidan to'liq ijara haqi to'langandan so'ng amalga oshiriladi (to'liq 100% oldindan to'lov) va bu Bankning Shartnoma tuzilgan paytdagi amaldagi tariflariga muvofiq amalga oshiriladi. Ijara haqi oylik tarzda to'lanadi va 1 oydan 36 oygacha bo'lgan muddat uchun to'lanadi. Mijoz Bankning Tariflariga muvofiq ijara haqini to'laydi, shundan so'ng Bank tomonidan Mijozga 2 ta IBS kaliti va Bank tomonidan rasmiylashtirilgan Arizaning bir nusxasi qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida topshiriladi.
- 3.8.** Ijara haqidan tashqari, IBSdan foydalanishdan oldin jismoniy shaxslar-rezidentlar Bankning Tariflarida ko'rsatilgan miqdorda garov depozitini kiritishlari shart. Ijara muddati tugagandan so'ng va Mijozning Bank oldidagi barcha majburiyatlari bajarilgach, garov depoziti qaytariladi. Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda Bank Mijozning garov depozitidan IBSdan foydalanish uchun kechikkan to'lov, jarima, penya, shuningdek, Bank tomonidan IBS ni ochish/ta'mirlash, yangi qulflarni sotib olish bilan bog'liq hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni ushlab qolish huquqiga ega.
- 3.9.** Jismoniy shaxslar tomonidan ijara haqi naqd pul yoki plastik kartalar orqali, yoxud ular depozit hisobvarag'idan naqd pulsiz to'lov yo'li bilan Ariza topshirilgan kunda amalga oshiriladi.
- 3.10.** Yuridik shaxslar ijara haqini bank hisobvarag'idan, yakka tartibdagi tadbirkorlar esa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bank hisobvarag'i yoki plastik kartalar orqali to'laydilar.
- 3.11.** Ijara muddatini uzaytirish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan har bir yangi Ijara muddati uchun ijara haqi Ariza taqdim etilgan paytdagi Bankning Tariflariga muvofiq belgilanadi va Mijoz tomonidan yangi ijara muddati boshlanishidan oldin to'lanadi.
- 3.12.** Ijara muddati tugashidan oldin IBSdan foydalanish to'xtatilgan taqdirda, qolgan to'liq oylik ijara muddati uchun to'langan mablag' jismoniy shaxslar uchun Bankning kassasida naqd pul bilan yoki Mijoz tomonidan taqdim etilgan rekvizitlar bo'yicha naqd pulsiz tartibda qaytariladi, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga faqat naqd pulsiz tartibda ko'rsatilgan hisobvarag'iga qaytariladi.
- 3.13.** Mijozning talabiga binoan hisob-kitoblarni qayta hisoblash natijasida Bank va Mijoz o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha dalolatnoma tuzilishi va imzolanishi mumkin.
- 3.14.** Shartnoma muddati tugagach, Mijoz kalitlarni topshirish/IBSni bo'shatish uchun Bankka o'z vaqtida kelmasa va IBSdan foydalanishni davom ettirsa,



Ijara muddati tugaganidan keyin IBSdan foydalanish uchun haq to'lash majburiyati Mijozga yuklanadi. Bank Mijozning Ijara muddati tugaganidan keyingi davr uchun to'lovni amalga oshirmagan bo'lsa, IBSga kirish huquqini rad etish huquqiga ega. Ijara muddati tugaganidan keyin IBS dan foydalanish uchun haq IBS kaliti Bankka qaytarilguncha to'lanadi. Mijozning Ijara muddati tugaganidan keyin IBSdan foydalanish uchun haq amaldagi foydalanish davri uchun hisoblanadi. Ijara muddati tugaganidan keyingi foydalanish uchun haqning hisob-kitobida to'liq bo'lmagan oy 1 (bir) to'liq oyga to'g'rilanadi.

- 3.15.** Shartnoma shartlari buzilganda Mijoz Bankga Bankning Tariflariga muvofiq jarima, penya va boshqa xarajatlarni to'laydi, yoki Bankning roziligiga ko'ra ushbu xarajatlarni o'zi mustaqil qoplaydi.
- 3.16.** Bank O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq Mijozning ruxsatisiz zarur mablag'larni hisobidan chiqarish huquqini o'zida saqlab qoladi. Mijoz Bankka Shartnoma bo'yicha undirilishi kerak bo'lgan summalarni barcha hisobvaraqlardan hech qanday ruxsat va/yoki rozilik olmasdan chiqarish uchun haqiqiy, qaytarib bo'lmaydigan va so'zsiz ruxsat beradi.

#### **4. IBSDAN FOYDALANISH TARTIBI**

- 4.1.** Mijoz barcha hujjatlar rasmiylashtirilgandan, barcha to'lovlar amalga oshirilgandan va IBS kalitlari olingandan so'ng IBSdan foydalanish huquqiga ega.
- 4.2.** Mijoz quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda IBSga kirish huquqiga ega:
- Mijozning IBS uchun ijara va boshqa to'lovlar bo'yicha qarzining mavjud emasligi;
  - IBSning Mijoz kalitlari mavjudligi;
  - Mijozning/Dalolat beruvchi shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning mavjudligi;
  - Ishonchnoma (Dalolat beruvchi shaxs uchun);
  - huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan IBSdan foydalanishga cheklovlar mavjud bo'lmaganda.
- 4.3.** IBSga kirish uchun Mijoz shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatib va ijaraga olingan IBS raqamini aytib, Bankning Depozitariy boshlig'i va/yoki Mas'ul xodimiga (keyingi o'rinlarda matnda – Universal xodim) murojaat qilishi kerak.
- 4.4.** Mijoz shaxsi aniqlanganidan va barcha hujjatlar amal qilish muddatiga muvofiqligi tekshirilganidan so'ng, Universal xodim Mijoz bilan birgalikda Bankning Depozitariyasiga kiradi.
- 4.5.** IBS ijara operatsiyalarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida, Bank xavfsizlik xodimi har qanday vaqtda Bankning Mas'ul xodimi va Mijozlar bilan birgalikda Depozitariyga kirish huquqiga ega, shuningdek, zarur hollarda Mijozlarning Depozitariyga kirish imkoniyati bor yoki yo'qligini aniqlash uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirish, Mijozni alkogol, narkotik yoki boshqa mastlik holatlari bor-yo'qligi bo'yicha ko'zdan kechirish, shuningdek, Mijozga Shartnomada ko'rsatilgan taqiqlangan narsalarni IBSda saqlash mumkin emasligi haqida qisqacha ma'lumot berish, Depozitariy ichida foto va video olishni texnik vositalar yordamida taqiqlash haqida xabar berish, shuningdek, zarur hollarda saqlanayotgan narsalarni tashqi ko'rik qilish, tegishli nazorat asboblari yordamida (agar mavjud bo'lsa) saqlanayotgan narsalar haqida shubha paydo bo'lsa, ko'rik o'tkazish huquqiga ega.



- 4.6. Mijoz Mas'ul xodim ishtirokida IBSning butunligini tekshiradi va tashqi shikastlanishlar mavjud bo'lmagan taqdirda, Universal xodim Mijozdan Hisob varaqasidagi tegishli bandda imzo qo'yishni so'raydi.
- 4.7. Bankning Universal xodimi IBSni Master-kalit bilan blokdan chiqaradi, shundan so'ng Mijoz IBSni Mijoz kaliti bilan ochadi. Shundan so'ng Universal xodim Master-kalitni qulfdan chiqaradi va Mijozga IBS kaliti IBS yopilgunga qadar burilgan holatda qolishi kerakligini eslatadi. Shundan so'ng Mijoz konteynerni chiqaradi (agar konteyner mavjud bo'lmasa, saqlanayotgan narsani) va Mas'ul xodim nazorati ostida Saqlanayotgan narsa bilan ishlash uchun Mijozlar xonasiga kiradi. Universal xodim Depozitariy ichida kutib turadi.
- 4.8. Mijozning Mijozlar xonasida bo'lish vaqti 10 (o'n) daqiqadan oshmasligi kerak.
- 4.9. Saqlanayotgan narsa bilan ishlash tugagach, Mijoz Mijozlar xonasidan chiqadi, Mas'ul xodim nazorati ostida Depozitariyga kiradi va konteynerni (yoki saqlanayotgan narsani) IBSga mustaqil ravishda joylashtiradi. Keyin Mijoz IBSni Mijoz kaliti bilan yopadi, Universal xodim IBSni Master-kalit bilan bloklaydi. IBS to'g'ri yopilganligiga va ish holatida ekanligiga ishonch hosil qilgach, Universal xodim Mijoz ishtirokida chiqish vaqtini ko'rsatadi va ular Hisob varaqasidagi tegishli bandga imzo qo'yadilar.
- 4.10. Shundan so'ng Universal xodim va Mijoz Depozitariydan chiqadi, Universal xodim metall eshikni yopadi va Mijozni kuzatib qo'yadi.
- 4.11. Mijozning IBSga kirishi operatsion kun davomida amalga oshiriladi.
- 4.12. Mijozning IBSda saqlanayotgan narsasi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda hibsga olinishi yoki musodara qilinishi mumkin. Bank Mijozning IBSdagi narsasiga hib qo'yilgan yoki musodara qilingan natijada yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

## **5. IBSDAN UCHINCHI SHAXSLAR TOMONIDAN FOYDALANISH TARTIBI**

- 5.1. Mijoz o'z ishonchli shaxsiga Shartnoma shartlariga muvofiq ishonchnoma berib va IBS kalitlarini topshirib, IBSdan foydalanishga ruxsat berishi mumkin.
- 5.2. Mijoz – jismoniy shaxs/yakka tartibdagi tadbirkor nomidan berilgan ishonchnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak.
- 5.3. Mijoz – yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma rasmiy blankada rasmiylashtirilib, yuridik shaxs rahbari yoki boshqa vakolatli shaxs tomonidan imzolanadi va muhr qo'yiladi. Bunday ishonchnoma notarial tasdiqlanishi mumkin.
- 5.4. Ishonchnoma Bankda saqlanishi lozim. Agar ishonchnomani Bankda saqlash imkoni bo'lmasa (masalan, ishonchnomada Shartnoma bilan bog'liq bo'lmagan boshqa vakolatlar mavjud bo'lsa), Mijoz/ishonchli shaxs Bankka notarial tasdiqlangan ishonchnoma nusxasini taqdim etishi, shuningdek, ishonchli shaxsning IBSga har kirishi vaqtida ishonchnomaning asl nusxasini taqdim etishi kerak.
- 5.5. Agar Mijoz bergan ishonchnomani bekor qilsa, bu haqda darhol Bankni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.
- 5.6. Mijozning ishonchli shaxsi IBSga kirishi Bank tomonidan ishonchnoma tekshirilgandan va ishonchli shaxsning shaxsi aniqlangandan keyin amalga oshiriladi.

## **6. IBSNI OCHISH TARTIBI**

- 6.1. **Mijoz tashabbusi bilan IBSni ochish:**
  - 6.1.1. Agar Mijoz kalitlarini yoki IBSni o'zi yo'qotgan yoki shikastlagan bo'lsa, IBSni Mijozning IBSni ochish to'g'risidagi arizasi asosida Mijoz ishtirokida ochiladi.

IBS Mijozning ariza bergan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida, Shartnoma va Bank Tariflariga muvofiq zarur to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin ochiladi. IBSni ochish natijalari bo‘yicha IBSni ochish dalolatnomasi tuziladi. Mijoz saqlanayotgan narsani IBSdan chiqarishi lozim.

- 6.1.2.** Agar Mijoz IBSni ochishdan keyin uni ijaraga olishni davom ettirishni xohlasa, Bank ushbu IBSning yangi kalitlarini beradi yoki Mijozning arizasiga binoan Bankda bo‘sh IBS mavjud bo‘lsa, ijaraning qolgan muddati uchun boshqa IBS taqdim etiladi.
- 6.2. Bank tashabbusi bilan IBSni ochish.** Bank quyidagi hollarda Mijoz ishtirokisiz IBSni majburan ochish va butun jarayonni videokamera yordamida tasvirga olish, saqlanayotgan narsani chiqarib olish va qulflarni almashtirish huquqiga ega:
- a) Mijoz Shartnomaning 3.4-bandida ko‘zda tutilgan majburiyatlarini buzgan taqdirda;
  - b) saqlanayotgan narsani xavfsizligini tahdid ostiga qo‘yuvchi tabiiy ofatlar, fors-major holatlarining yuzaga kelishi. Bunday holatlar hujjatlar bilan asoslanishi kerak;
  - c) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan tegishli hujjatlar olingan taqdirda;
  - d) IBS ijarasi muddati tugagan kundan boshlab 3 (uch) oy o‘tgach, Mijoz tomonidan Shartnomada belgilangan majburiyatlarning kechiktirilishi;
  - e) Shartnomaning muddatidan oldin bekor qilinishi (Mijoz IBS kalitlarini qaytarmagan hollarda);
  - f) Depozitariy faoliyatining Bank Boshqaruvi yoki vakolatli davlat organlari qaroriga binoan tugatilishi yoki vaqtinchalik to‘xtatilishi to‘g‘risida Mijoz xabardor qilingach, Mijoz IBS kalitlarini qaytarmagan va saqlanayotgan narsani chiqarmagan hollarda.
- 6.3.** Shartnomaning 6.2-bandi (a), b), c) kichik bandlari)ga muvofiq kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda IBSni ochish zarur bo‘lganda, Bank Mijozni uning ko‘rsatgan telefon raqamlari (faks), elektron pochta orqali yoki xat yuborish orqali darhol xabardor qiladi, 6.2-bandning (d), e), f) kichik bandlari)da nazarda tutilgan hollarda esa IBSni ochishdan kamida 10 (o‘n) kun oldin Mijozga pochta orqali yozma xabar jo‘natadi.
- 6.4.** Shartnomaning 6.2-bandining a), b) kichik bandlarida nazarda tutilgan hollarda Bank Mijozni uning ko‘rsatgan telefon raqamlari (faks), elektron pochta orqali yoki uning manzili bo‘yicha xat yuborish orqali darhol xabardor qilgandan keyin IBSni majburan ochish va saqlanayotgan narsani chiqarib olish huquqiga ega. Shartnomaning 6.2-bandining c) kichik bandida nazarda tutilgan hollarda Bank Mijozni darhol xabardor qilgandan keyin IBSni majburan ochish va saqlanayotgan narsani chiqarib olish huquqiga ega. Shartnomaning 6.2-bandining e), f) kichik bandlarida nazarda tutilgan hollarda Bank ijara muddati tugaganidan yoki Shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganidan keyin 3 (uch) oy ichida IBSni majburan ochish va saqlanayotgan narsani chiqarib olish huquqiga ega.
- 6.5.** Shartnomaning 6.2-bandida ko‘rsatilgan hollarda IBSni majburan ochish Bankning vakolatli vakillari, shu jumladan Bank xavfsizlik xodimi ishtirokida, kamida 5 (besh) kishidan iborat komissiya tomonidan amalga oshiriladi, 6.2-bandning c) kichik bandida esa huquqni muhofaza qilish yoki nazorat organlari vakillari ham ishtirok etishi mumkin. Shartnomaning 6.2-bandida ko‘rsatilgan majburan ochish hollarida, agar Mijoz bilan bog‘lanish imkoni mavjud bo‘lsa, Bank uni zudlik bilan Bankka kelishi haqida xabardor qiladi. Agar Mijoz majburan ochish belgilangan vaqtda

Bankka kelish imkoniyatini tasdiqlasa, jarayon uning ishtirokida amalga oshiriladi. Agar Mijoz belgilangan vaqtda kelmasa, ochish jarayoni uning ishtirokisiz amalga oshiriladi.

Majburan ochish ishlarini amalga oshirish uchun Bank pudratchi firmani taklif qilishi mumkin. Zarur hollarda Bank tashabbusi bilan Mijozning yaqin qarindoshlaridan biri majburan ochish bo'yicha komissiya tarkibida ishtirok etish uchun taklif qilinishi mumkin.

- 6.6.** IBSni har qanday majburan ochish jarayoni Depozitariyga kirishdan boshlab chiqishgacha videokameraga yozilishi kerak. Videokameraga Depozitariyda bo'lgan barcha shaxslar – komissiya a'zolari, IBSni ochish va saqlanayotgan narsani chiqarib olish jarayoni, saqlanayotgan narsaning ro'yxatini tuzish, IBSni yopish va hokozalar majburiy suratda yozib olinishi kerak.
- 6.7.** IBS majburan ochilgandan so'ng IBS tarkibini ko'rsatuvchi dalolatnoma tuziladi. Dalolatnoma kerakli miqdorda nusxada tuziladi va barcha komissiya a'zolari tomonidan imzolanadi, bir nusxasi (Mijoz Bankka kelganda unga topshiriladi). Videoyozuv fayllari (materiallari) Bank xavfsizlik xodimi tomonidan saqlanadi va bank siri hisoblanadi. Majburan ochish jarayonidagi videoyozuv Mijoz Bankka kelganida unga ko'rsatiladi.
- 6.8.** IBSni majburan ochish huquqni muhofaza qilish va nazorat organlarining talabiga binoan amalga oshirilgan hollarda (Shartnomaning 6.2-bandining "c)" kichik bandi), saqlanayotgan narsa tegishli tartibda huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari vakiliga topshiriladi yoki ularning ko'rsatmalariga muvofiq Bankda mas'uliyatli saqlashga qoldiriladi.
- 6.9.** Mijoz Bankning Depozitariy faoliyatining to'xtatilishi to'g'risida xabardor qilinganidan keyin IBS kalitlarini qaytarib berish va saqlanayotgan narsani chiqarib olish uchun Bankka kelmasa (Shartnomaning 6.2-bandining "f)" kichik bandi), Bank Mijozni Depozitariyning yopilishi munosabati bilan IBSning majburan ochilishi haqida yozma ravishda xabardor qiladi. Agar Mijoz Bankka kelmasa, Shartnomaga muvofiq belgilangan tartibda IBS majburan ochiladi. Shundan so'ng Mijozga saqlanayotgan narsa joylashgan Bank saqlash omborining manzili ko'rsatilgan yozma xabar jo'natiladi.
- 6.10.** IBS ochilishida Mijoz ishtirok etmagan hollarda, IBS ochilgani haqida Mijozga xabar yuboriladi. IBS tarkibi Bank tomonidan belgilangan tartibda qop, inkassatsiya sumkasi yoki saqlanayotgan narsaga mos boshqa idishga joylanadi, plomba qo'yiladi va Bankning saqlash omboriga mas'uliyatli saqlashga topshiriladi, bu jarayon O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan shartlar asosida amalga oshiriladi. Saqlanayotgan narsa Mijozga faqat uning Shartnomaga va Tariflarga muvofiq Bank oldidagi qarzi to'liq qoplangandan so'ng qaytariladi.
- 6.11.** IBSni ochish jarayonida saqlash uchun taqiqlangan narsalar topilgan hollarda, agar asoslar mavjud bo'lsa, ochish natijalari tegishli huquqni muhofaza qilish va/yoki boshqa davlat organlariga yetkaziladi.
- 6.12.** Agar saqlanayotgan narsa Shartnomaning 3.4-bandiga muvofiq IBSda saqlanishi taqiqlangan narsalardan bo'lsa va uni saqlash mumkin bo'lmasa, lekin bu narsalarni huquqni muhofaza qilish yoki davlat organlariga topshirishga asos bo'lmasa, Bankning Bosh ofisi qaroriga ko'ra saqlanayotgan narsa Bank filiali vakolatli vakillari (shu jumladan, Bank xavfsizlik xodimi) ishtirokida kamida 5 (besh) kishilik komissiya huzurida yo'q qilinishi mumkin. Bu jarayon videokameraga yozib olinadi, yo'q qilingan narsalarning ro'yxati va yo'q qilish dalolatnomasi tuziladi. Videoyozuv fayllari (materiallari) Bank xavfsizlik xodimi tomonidan saqlanadi va bank siri hisoblanadi. Yo'q qilish jarayonidagi videoyozuv Mijoz Bankka kelganida unga ko'rsatiladi.

## 7. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 7.1. Bank quyidagi majburiyatlarga ega:

- 7.1.1. IBSni Mijozga o'z vaqtida va soz holatda taqdim etish.
- 7.1.2. IBSni qo'riqlash va ularning saqlanishini ta'minlash uchun barcha choralarni ko'rish.
- 7.1.3. Mijoz tomonidan Depozitariyga murojaat qilinganda IBS va Mijoz kalitlarini qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga muvofiq belgilangan tartib va muddatda Mijozga topshirish/qabul qilish.
- 7.1.4. Mijozga yoki uning vakiliga IBSga erkin kirish imkoniyatini, saqlanayotgan narsani IBSga joylashtirish va chiqarish imkoniyatini ta'minlash.
- 7.1.5. Mijozga IBS ijaraga berilganligi, Mijozning shaxsi va Shartnoma shartlari haqida uchinchi shaxslarga qonunchilikda nazarda tutilgan hollarni hisobga olmaganda, ma'lumot bermaslik.
- 7.1.6. Mijozning yozma arizasiga asosan IBS kalitlarini yo'qotish/shikastlash yoki IBS qulfi shikastlangan taqdirda, Shartnomada belgilangan tartibda Mijoz ishtirokida IBSni ochish.
- 7.1.7. IBS kalitlari yo'qolgan, buzilgan yoki o'g'irlangan taqdirda, Mijoz tomonidan jarima, penya to'langanidan va Bankning qulflarni almashtirish bo'yicha xarajatlari qoplanganidan so'ng, Mijozning so'roviga binoan unga boshqa IBSni taqdim etish yoki qulflarni almashtirib, IBS uchun yangi kalitlarni topshirish.
- 7.1.8. Shartnomada nazarda tutilgan hollarda va Shartnoma bajarilishiga bog'liq boshqa holatlarda IBSni ochish zarurligi to'g'risida Mijozga xabar berish, Shartnomada belgilangan axborot yetkazish usullari orqali.
- 7.1.9. Shartnomada belgilangan tartibda IBS ochilgan kundan boshlab saqlanayotgan narsalarni 3 (uch) yil davomida saqlash.
- 7.1.10. Shartnoma va Tariflar o'zgargan taqdirda, ularning kuchga kirishidan kamida 10 (o'n) kun oldin Mijozga ma'lumot berish va ma'lumotlarni oshkor qilishning Shartnomada belgilangan tartibiga muvofiq axborot berish.

### 7.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- 7.2.1. IBSdan foydalanish uchun Mijozdan ijara haqini va boshqa to'lovlarni olish, jumladan:
  - a) Shartnomada belgilangan ijara muddati tugaganidan so'ng IBSdan amalda foydalanish uchun haq olish;
  - b) Shartnoma shartlarini buzish oqibatida IBSni ochish uchun jarima, penya, to'lovlar va xarajatlarni qoplash (shu jumladan, IBS kalitlarini yo'qotish/shikastlash holatlarida);
  - c) Shartnomada nazarda tutilgan hollarda Bankning saqlash, realizatsiya qilish yoki saqlanayotgan narsalarni yo'q qilish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash.
- 7.2.2. Shartnomada belgilangan tartibda Mijoz ishtirokisiz IBSni ochish va ochish jarayonini to'liq videokameraga yozish.
- 7.2.3. Shartnomada ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha IBS ochilgan kundan boshlab 1 (bir) yil o'tgach:
  - a) saqlanayotgan narsa pul mablag'lari bo'lsa, ularni Mijozning Bank oldidagi qarzini qoplash uchun ishlatish;
  - b) agar saqlanayotgan narsa erkin muomaladagi tovarlar bo'lsa, ularni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda savdoda sotish;
  - c) agar saqlanayotgan narsalarni sotish imkoni bo'lmasa, ularni yo'q qilish.
- 7.2.4. Bank tomonidan saqlanayotgan narsalar sotilganidan tushgan summa yoki saqlanayotgan narsa sifatida mavjud bo'lgan pul mablag'lari Mijozning Bank



- oldidagi qarzlarini (IBSni ochish, qulflarni almashtirish, saqlash va realizatsiya qilish xarajatlarini) chiqarib tashlagan holda Mijozga topshiriladi.
